


Aviakompaniya xodimlari uchun sog'lomlashtirish kuni

2025 29 July

Uzbekistan Airways Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan jismoniy imkoniyati cheklangan, boquvchisini yo'qotgan bolalarni tarbiyalayotgan, shuningdek, ishlamaydigan nafaqadagi sobiq xodimlar uchun sayyor sog'lomlashtirish tadbiri tashkil etildi.



Tadbir dasturiga suv muolajalari, davolovchi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, yoga va kontakt hayvonot bog'iga tashrif buyurish kiritildi.



Ijtimoiy hisobda turuvchi xodimlarning farzandlariga poytaxtdagi istirohat bog'laridan biriga tashrif buyurish uchun to'rttadan vaucher taqdim etildi.



Mazkur tadbir xodimlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalari va ularning oilalariga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin namunasiga aylandi, ishtirokchilarga e'tibor, qo'llab-quvvatlash va samimiy ilqlikka to'la kunni hadya etdi.